



BOSHLANG`ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA`LIMI JARAYONIDA O`QUVCHILARNI KREATIVLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Shoniyoza Pokiza Samariddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat

Universiteti Pedagogika ta`limi fakulteti

Boshlang`ich ta`lim o`nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining texnologiya darslarida kreativligini shakllantirish nazariyasi va ahamiyati yoritilgan, shuningdek, o`quvchilarda kreativlikni shakllantirish eng muhim omil ekanligi nazariy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Boshlang`ich sinf, kreativlik, qobiliyat, tafakkur, mehnatsevarlik, kasbga yo`naltirish, texnologiya darslari.

Аннотация: В данной статье изложена теория и значение формирования творческих способностей учащихся младших классов на уроках технологии, а также теоретически обосновано, что формирование творческих способностей учащихся является важнейшим фактором.

Ключевые слова: Начальный класс, креативность, способности, мышление, трудолюбие, профориентация, уроки технологии

Abstract: In this article, the theory and importance of forming the creativity of elementary school students in technology lessons is explained, and it is theoretically explained that the formation of creativity in students is the most important factor.



Key words: Elementary class, creativity, ability, thinking, hard work, career orientation, technology lessons.

Kirish

Respublikamizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu bilan birga, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga tatbiq etish hamda ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini yanada oshirish, o'quvchi-yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga yo'naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, intellektual barkamol avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ma'lumotlarimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

K.Rodgers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va



intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellectual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar

Dj.Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg,ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkalikdan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Asosiy qism. Boshlangi'ch ta'lim texnologiya darslarida o'quvchilar kreativlik qobiliyatini shakllantirish hozirgi ta'lim soxasining ahamiyatli tomonlaridan biridir. Bunday odamlar ko'pchilik biladigan va faqat ma'lum bir tarzda ishlatadigan elementlarning yangi kombinatsiyalarini shakllantirishga yoki birinchi qarashda hech qanday aloqasi bo'lmagan



ikkita element o'rtasida aloqalarni o'rnatishga xarakat qiladilar. Kreativ qobiliyatlarni mustaqil omil sifatida o'rganadigan olimlarning fikrlash pozitsiyasiga rioya qilgan holda, ularning rivojlanishi maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini o'rganish natijasidir, biz boshlang'ich maktab o'quvchilarining kreativ (ijodiy) qobiliyatlarining tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz: ijodiy fikrlash; ijodiy tasavvur; ijodiy faoliyatni tashkil etish usullaridan foydalanish. O'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish kerak: ob'ektlar, vaziyatlar va hodisalarni turli asoslarga ko'ra tasniflash; sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish; o'zaro bog'liqlikni va tizimlar o'rtasidagi yangi aloqalarni aniqlash; rivojlanish tizimini ko'rib chiqish; kelajakka oid taxminlar qilish; ob'ektning qarama-qarshi belgilarini ajratib ko'rsatish; qarama-qarshiliklarni aniqlash va shakllantirish; fazo va vaqtdagi ob'ektlarning qarama-qarshi xususiyatlarini ajratish; fazoviy ob'ektlarni ifodash; tassavur qilingan muxitda turli yo'nalish tizimlaridan foydalanish; belgilangan xususiyatlar asosida ob'ektni tassavur qilishga quyidagilarkiradi:

- a) fikrlashning psixologik inersiyasini yengish;
- b) qarorning o'ziga xosligini baholash;
- c) yechimlarni qidirish maydonini qisqartirish;
- d) ob'ektlar, vaziyatlar, hodisalarning hayoliy o'zgartirish;
- e) o'rganilayotgan mavzuga muvofiq ob'ektlarning hayolan o'zgartirish.

Bugungi kunda respublikamizda kreativ fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday yoshlarga ta'lim-tarbiya va bilim berish uchun ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qaroriga muvofiq:) respublikada texnik ijodiyot, badiiy ijodiyot maktablarini tashkil etish;) o'quvchi



yoshlarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, shuningdek, bolalar maktablarining to‘g‘arak a‘zolari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni olib chiqish maqsadida “Art shop” elektron do‘konlarini tashkil etish va sotuvni yo‘lga qo‘yish; bolalar maktablarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab “STEAM –ta’lim” (Science –tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering –muhandislik, Art –san’at, Mathematics -matematika) dasturi joriy etish vazifa etib belgilandi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni ijodiy mehnatga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, kasb-hunarga yo‘naltirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish muhim muammolardan biridir. Shunday ekan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni ijodiy mehnatga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiya darslarining o‘rni katta hisoblanadi. Texnologiya darslarida o‘quvchilar chuqur va mustahkam bilim bilan qurollandilar. Bu jarayonda o‘quvchilar tanlagan kasbiga qiziqishi, mehnatkash kishilarga hurmatda bo‘lishi tarbiyalanadi. Har bir texnologiya darslari o‘quvchilarni diqqatini, xotirasini, farqlash bilimini, fikr yuritishni, o‘z ishini rejalashtirishni va o‘z vaqtida amalga oshirishni, o‘z-o‘zini nazorat qilish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Shuni bilamizki, boshlang‘ich sinf umumiy o‘rta ta’limning poydevori bo‘lib, unda bola shaxsini ilk ko‘rinishlari shakllanadi. O‘quvchilarni kreativlik qobiliyatini shakllantirishda turli materiallar bilan ishlashda oddiydan murakkabga yo‘naltirilsa, yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsagina o‘quvchilarning kreativligi yanada tez shakllanib boradi.

Xulosa

Demak, umuman fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o‘zgalarnikiga o‘xshamagan yo‘sinda, ularnikidan boshgacha yo‘l bilan bilib oladi. Texnologiya mashg‘ulotlarini muvafaqqiyatli o‘tishi texnologiya ta’lim va tarbiyasida samarali erishish ko‘p jihatdan ishni to‘g‘ri rejalashtirishga bog‘liq. Texnologiya darslarini xususiyatlari shundan iboratki, bolalar texnologiya va texnik ijodkorligini rivojlantirishga oid bilimlari ko‘nikma va malakalarini xilma-xil amaliy



ishlarni bajarish o‘zlariga kerakli va ijtimoy ahamiyatga ega bo‘lgan buyumlarni tayyorlash jarayoni egallab oladilar. Bu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi har chorak uchun texnologiya darslarini shunday rejalashtirishdan iboratki, bunda o‘qituvchi bolalar tomonidan hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan kengaytirish va murakkablashtirish ishlarni va bolalar jamoasini kundalik hayotida kerak bo‘lgan buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish bilan birga qo‘shib olib borishni nazarda tutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori.
2. X.Sanakulov, D. Yakubova R. Lutfitdinova. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2020.- 224 b.
3. M. A. Tilakova, O. E. Eshmuradov ilm.maqola Kreativ kobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 /Volume: 1, ISSUE: 6 143-149 b.
4. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning nazariyasi va amaliyoti. G.Quttibekova, D.Kulboyeva, T-: O‘zbekiston 2020-y